



## BOLA TARBIYASIDAGI MUHIM VAZIFALAR

*Qosimova Farangiz Sherzod Qizi**Maktabgacha ta'lif yo'naliishi 2-kurs talabasi**E-mail [farangizkosimova4@gmail.com](mailto:farangizkosimova4@gmail.com)**Tel: +998 90 565 33 08*

**Annotatsiya.** Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqligi, yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari tog'risida so'z ketgan. Hozirgi kunda bolalarning ilm olishi xususida suhbatlar kamayib borishining oldini olish va bunday vaziyatga bolalarning ota-onalari o'qituvchilarni va barcha bolaga ta'sir etadigon yaqinlari tog'risida yoritilgan. Aytish joizki farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi boladi.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy tarbiya, sog'lom, ta'lif, maqtov, farzand, psixologiya, fziologiya, ilm, xulq, ota-ona, o'qituvchi, axloqiy me'yor, yaxshi, yomon, oila, kitob, jazo, oila prisplari

**Абстрактный.** В данной статье на основе сравнительного анализа освещены лучшие практики и технологии в организациях дошкольного образования зарубежных стран. Данна информация о формах и условиях дошкольного образования в развитых странах Запада и Востока. При этом было освещено содержание реформ, реализуемых в сфере дошкольного образования в нашей стране, и их результаты. Обсуждены роль и значение лучших практик в системе образования в обеспечении развития государств.

**Ключевые слова:** Нравственное воспитание, здоровое, воспитание, похвала, ребенок, психология, физиология, наука, поведение, родители, учитель, нравственные нормы, хорошо, плохо, семья, книга, наказание.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdag'i yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini



ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini ulg‘aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo‘ladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ota-onas vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O‘sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim. Hozirgi kunda farzandining ilm olishi xususida suhabatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o‘z vaqtini telefon bilan o‘tkazishi keng tus olyapti. Bunda me’yordan oshib ketish holatlari ko‘p uchramoqda. Farzandni kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o‘qishga ko‘nikma hosil bo‘ladi. Bilim olishga bo‘lgan intilish yanada kuchayadi. Ota-onalar farzandlari tug‘ilishi bilan "Bu bola mehribon , fahm-farosatli va kuchli inson bo‘lishini xohlayman"qabilida yaxshi niyat va orzu qiladilar.Bu ota-onas qalbi deb atalib, xudbinlik, shuhratparastlik kabilardan mutlaqo yiroqdir

### BOLA TARBIYASIDA OILA PRINSIPLARI:

**Birinchidan**, oila muhitida axloqiy emosional his-tuyg‘u mosligi hukm surishi kerak.

**Ikkinchidan**, oilada ma’naviy totuvlik, inoqlik, hotirjamlik, samimiy vaziyat zarur.

**Uchinchidan**, bo‘lishi shart. ota-onas betakror o‘z nufuziga va obro‘-e’tiboriga ega

**To‘rtinchidan**, ota-onaning farzand tarbiyasida birligi, talabchanligi, prinsipialligi har bir yosh davri uchun o‘zgarmasligi darkor.

**Beshinchidan**, oilada o‘g‘il-qiz mehnat orqali kamol topishi kerak.

**Oltinchidan**, oila, mahalla, jamoatchilik, ta’lim muassasasalari, jamoat tashkilotlari hamkorligi muayyan samara beradi.

**Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash**, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-

onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan.

**Abu Ali ibn Sino** yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: “Yosh bola boshlang‘ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san’atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega»(«*Islomiy tarbiya va uning falsafasi*». *Muhammad Atiya, 197-bet*).

Siz bolani devordagi yirtilgan gulqog‘ozlar uchun urishasizmi? Qanday qilib unga buning yomon ekanini tushuntirasiz? Siz uchun "yaxshi" va "yomon" tushunchalari o‘z shaxsiy tajribangiz va umumqabul qilingan axloqiy me'yorlar bilan bog‘liq. Ammo yosh bolada bunday tajriba yo‘q, u gulqog‘ozni yirtish yaxshi yoki yomon ekanligini anglashi uchun biror narsaga tayana olmaydi. Agar uni qattiq koyisangiz, ehtimol, bu ishni noxush oqi batlardan saqlanish uchun qayta qilmasligi mumkin. Shu bilan birga, bu voqeal boladagi unib chiqa- yotgan ijodkorlik istagini so‘ndirishi mumkin. Bolalar psixologgi Seyshiro Aoki bolada "yaxshi" va "yomon" tushunchalari shakllanishini maxsus tadqiq etdi hamda bola uchun "yaxshi" qiziq va ajoyib ma'nolarini anglatishi haqida xulosa qildi. Masalan, gazetalarda ko‘pincha bolalar o‘g‘irliklarini yozishadi. Bola bexatar uyg aqaytgach, nega begona odam bilan ketganini so‘rashganida ko‘pincha: "Qiziqarli amaki ekanliklari uchun ketdim. U yomon odam emas", deb javob beradi. Bola o‘g‘rilari bola psixologiyasini yaxshi biladiganga o‘xshaydi. Ular o‘yinchoq va qiziqarli gaplar bilan bolada qiziqish uyg‘otishadi. Yosh bola esa, quvontradigan, qiziqarli amaki bo‘lsa, yaxshi odam deb xech shubhalanmay o‘g‘riga ergashib ketadi. Bunday yaxshi" va "yoqimli" tushunchalar erta daklik davri uchun to‘g‘ri keladi. Bola asta-sekin tajriba orttiradi, endi u "yaxshi"ni maqtov eshitiladigan narsa deb tushunadi. Agar bola biror topshiriqni bajarsa va maqtov eshitsa, u buni to‘g‘ri, yaxshi deb biladi. Buning aksi, uni koyishsa yoki jazolashsa, demak, u yomon ish qilganini anglaydi. "Yomon" tushunchasi noxush

tuyg‘ularni eslatadi. Bolaning xohish-istiklarini e’tiborsiz qoldirib, uning shaxsiga nisbatan kuch ishlatalish afsuski tarbiya deb tushiniladi. Bolani urishgandan ko‘ra maqtagan afzalroq. Ikki uslub rag‘batlantirish va jazolashning ikkinchisi samaraliroq tuyulsada, aslida, bunday emas. Jazolash bolada teskari munosabatni ochiq-oydin bo‘ysunmaslikni keltirib chiqarishi mumkin. Gap shundaki, maqtov va jazolashdan ehtiyyotkorona foydalanish lozim. Tasavvur qiling, ona bir idishda sharbatni stolga olib boryapti. O‘z onasiga hamma ishda taqlid qilishni istaydigan ikki yoshlar atrofidagi bola xuddi shu ishni takrorlashga harakat qiladi. Ona esa "Mumkin emas!" - deb, bolasi sharbatni to‘kib yuborishidan qo‘rqib, ishni bajarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu noto‘g‘ri. Bola kattaroq bo‘lganida onasi unga qarashmayotganidan noliydi. Go‘dak o‘zining yoshi uchun qiyin bo‘lgan biror ishni qilishga uringanida uni maqtagan ma’qul. "O‘zimning katta bo‘lib qolgan o‘g‘lim!" - deb, sharbatni ozgina quyib, idishni olib borish imkoniyatini berish lozim. Bunday munosabat juda muhim. Albatta, go‘dak hali o‘z xohishlarini ko‘rsatib bera olmaydi, ammo ona ularni ilg‘ab olishni o‘rganishi kerak. Bu onaning asosiy vazifalaridan biri .

Bolani o‘z xohishiga qarshi biror narsani qilishga majburlash bilan uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qqa chiqarasiz .Ta‘lim bilimlarning o‘qituvchidan o‘quvchiga berilishini anglatgani uchun o‘qituvchi yoki tarbiyachi vazifasini bajaruvchi shaxs o‘z -o‘zidan beruvchi holatida bo‘ladi .Shaxsiy fikrimga ko‘ra tabiya biz tarbiya deb ataydigon chegara tashqarisida. Masalan hech bir ota yoki ona farzandiga ona tilini o‘rgatmoqdan deb o‘ylamaydi .Shunga qaramay , ota - ona bilan muloqot tarbiya deb atalmasada ,bolani gapirishga o‘rgatadi . Chiba universiteti faxriy professori janob Tako Tero sumo dunyosining mashxur odamlari bolalik davrini tatqiq qildi. Ya’ni onadan boshlab atrofdagi odamlarning bolaga ta’sir o‘tkazuvchi chuqur tushuntirishlari va g‘amxorliklaridan bola tarbiyasini boshlanadi .

Bolaning qiziqishini mustahkamlash kerak. Bola tarbiyasida qiziqtirish eng yaxshi omildir. Ammo shu o‘rinda bir muammo bor: bolaning biror narsaga qiziqishi juda tez yo‘qoladi, chunki uning qiziquvchanligi cheksizdir. Agar uni o‘z holiga tashlab qo‘ysangiz, uning e’tibori bir narsadan ikkinchisiga sakrab o‘taveradi. Albatta,

bu uning yoshiga xos va uning e'tiborini birgina narsada majburlab ushlash unga teskari, ya'ni salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning qiziquvchanligi dunyoni anglash hamda uning aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Men bolaga to'liq erkinlik berishni ham tavsiya etmas edim. Bola uchun bitta predmet bilan ovora bo'lib qolish (bu holatning haddan ortiq shakli autizm deyiladi) va biror narsada o'z e'tiborini bir muddat jamlay olmaslik birdek xavflidir. Natijada u yengil tabiat bo'lib ulg'ayishi mumkin.

Quyida keltirilgan tavsiyalarga e'tibor bermay, "erkin" tarbiya tamoyillariga amal qilinsa, bola uchun bu falokatga aylanadi. Bola hali yoshiga to'limgan davrlarda qattiqqo'llikni qattiqqo'llik deb his qilmaydi, qamchini qamchi sifatida bilmaydi. Ikkichuch yoshdan o'tgan bola esa qamchining og'rig'ini yaxshi biladi. Shuning uchun avval bolani faqat erkalatib, keyin qattiqqo'llik qilinsa, unda norozilik kayfiyati kuchayadi. Ota-onan kutayotgan natijaning aksi yuzaga keladi.

Bola tarbiyasi – bu kelajak avlodni sog'lom, ma'naviy va ijtimoiy barkamol qilib shakllantirish jarayonidir. Bola tarbiyasida ota-onan, pedagoglar va atrof-muhitning o'rni muhim.

Bu vazifalarni amalga oshirishda doimiy muloqot, sabr-toqat va bolaga mehr ko'rsatish asosiy omillardir. Bola tarbiyasi uchun belgilangan qoidalarni izchil amalga oshirish uning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Masaru Ibuka "Uchdan kiyin kech" Toshkent "Akademnashr" 144-b.
2. SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. (2024). *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(6), 294-301. <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/38003>
- 3 <https://muslim.uz/uz/e/post/23623-oilada-farzand-tarbiyasi-bolaboshidan?page=2&per-page=1>
- 4 <https://scientific-jl.org/mod/article/view/7643/7401>
- 5 <https://scientific-jl.org/mod/article/view/7647>